

# NORDIC LIFE 2022

**1** son

Sentabr \* Oktabr \* Noyabr



**1** Muloqotlar  
Choraklik hisobotlar

**2** Muzokaralar  
Jarayonlar tahlili

**3** Munosabatlar  
Muvaffaqiyat omili

**XALQARO NORDIK UNIVERSITETI**

**NORDIK HAYOTI  
NORDIC LIFE**

Toshkent - 2022

# NORDIK HAYOTI/NORDIC LIFE

Xalqaro Nordik universiteti rektori  
Sh.Mustafakulov tahriri ostida

**Nashrga tayyorlaganlar:**  
M.Isaqova, O.Raximberdiyev, R.Shodmonov

Xalqaro Nordik universitetida tayyorlangan Nordik hayoti broshyurasi o'zbek – fin ta'lif sohasi auditoriyasi uchun mo'ljallangan. Broshyurada Finlandiya bilan hamkorlikda tashkil etilgan xalqaro universitetning jahon ta'lif andozalariga asoslangan holda yaratgan o'ziga xos rivojlanish yo'lli, akademik va noakademik hayoti, respublika va xalqaro darajasi amalga oshirayotgan muhim islohot hamda yangilanish odimlari o'z aksini topgan.

Ushbu broshyurada XNU tashkil topgan ilk chorakdagi muhim vogeliklar jamlangan bo'lib, universitetning madaniy-ma'rifiy, ilmiy hayoti, xalqaro hamkorlik aloqalari bilan tanishish imkonini beradi.



**INTILGANGA TOLE YOR!**

**WHERE THERE'S A WILL, THERE'S A WAY!**



# Mundarija

Kirish	3
Finlyandiya modeli asosidagi ilk xususiy oliygoh – Toshkentda!	4
Yurtimizda turib xalqaro darajadagi bilimlarni egallash mumkin!	5
Helsinki universiteti vakillarining tashrifi	8
Xalqaro seminar-trening o'tkazildi	9
Xalqaro Nordik Universitetining rasmiy ochilish tadbiri	10
Mobil ta'limning muvaffaqiyatli yechimlari	14
Xalqaro hamkorlik aloqalari kengaymoqda	15
BMT Taraqqiyot dasturining O'zbekistondagi doimiy vakili – XNUda	16
Helsingin Suomalainen Yhteiskoulu (SYK) maktabi vakillari tashrif buyurdi	17
XNU Foundation maktabi darslariga start berildi	18
Xalqaro press-klubning maxsus soni Xalqaro Nordik universitetida tasvirga olindi	19
XNUda ilk "ORIENTATION WEEK" o'quv-tanishtiruv seminar-treningi start oldi	20
Germanianing IAMO ilmiy-tadqiqot instituti vakillari tashrif buyurdi	21
Toshkent viloyati hokimligi bilan hamkorlik yo'nalishlari belgilandi	22
XNUda Amerika matematika olimpiadasi o'tkazildi	22
UNICEF bilan ta'lif loyihalari amalga oshiriladi	23
Birinchi "O'zbekiston-Finlandiya xalqaro biznes-forumi" o'tkazildi	24
O'zbekiston-Finlandiya hamkorligi: muhim tarmoq rivoji - e'tiborda	26
XNUda "Onlayn matab" uchun tanlov o'tkazildi	27
Erasmus+ axborot ko'mak seminari bo'lib o'tdi	28
Stokholm universiteti vakili tashrif buyurdi  12-noy.	29
Shvetsiya bilan ta'lif, ilm-fan borasida hamkorlik o'rnatildi	29
Iqtidorli yoshlarga universitet grantlari ajratildi	30
Mehnat migratsiyasi bo'yicha xalqaro Forum – 2022	31
Finlyandiyalik ekspertlar ishtirokida seminar-trening o'tkazildi	32
XNU faoliyati - respublikamiz markaziy nashrlarida	33

# KIRISH

Ma'lumki, 2022-yilning 27-may kuni Toshkent shahrida O'zbekiston-Finlyandiya tashqi ishlar vazirlarining siyosiy maslahatlar bo'yicha 10-yig'ilishida Shimoliy Yevropa mamlakatlarining ta'lim sohasidagi ilg'or yutuqlariga asoslangan zamonaviy xususiy oliy ta'lim tashkiloti – Xalqaro Nordik Universitetini tashkil etish bo'yicha kelishuvlarga erishildi.

**Xalqaro Nordik Universiteti** – bu Shimoliy Yevropa davlatlari, xususan Finlyandiya oliy ta'lim modeli va ilg'or standartlariga asoslangan xususiy oliy ta'lim muassasasi. Universitetni haqli ravishda, fin va o'zbek hamkorligining ilk yirik natijasi, Finlyandiya oliy ta'lim tizimining O'zbekistondagi yagona aksi, Toshkentdagi birinchi ta'lim klasteri, deyishimiz mumkin.

Ushbu broshyurada XNUning respublika mehnat bozorida talab yuqori ta'lim yo'nalishlari bo'yicha malakali mutaxassislar tayyorlash, ta'lim sifatini yaxshilash, sohaga doir ilg'or xorijiy tajribalarni joriy etish, yoshlarning amaliy fanlar bo'yicha bilim va ko'nikmalarini shakllantirish, oliy ta'lim – ilm-fan – ishlab chiqarish bilan uzviy integratsiyani jadallashtirish borasidagi ibratli sa'y-harakatlari o'z aksini topgan.

Broshyurada XNUning Finlyandiya va boshqa rivojlangan shimoliy mamlakatlar uchun O'zbekistonda inson kapitali va biznesni rivojlantirish, ta'lim, startaplar hamda xalqaro loyihalar bo'yicha hamkorlik markazi va zamonaviy, innovatsion platformaga aylanish yo'lidagi amaliy ishlari jamlangan.

Ushbu jild orqali universitetning qisqa fursat ichidagi salmoqli yutuqlari, ya'ni tashkil topishi, faoliyatini yo'lga qo'yishi va rivojlanishda izchillikka erishib ulgurgani, nafaqat talaba-yoshlarga, balki xalqaro imkoniyatlardan unumli foydalanib, butun respublika bo'ylab ta'lim tizimi faoliyati samaradorligini oshirishga qo'shayotgan ulkan hissasi bilan tanishish mumkin.

**Sherzod Mustafakulov**


*Xalqaro Nordik universiteti rektori  
Iqtisodiyot fanlari doktori, professor*

## Finlyandiya modeli asosidagi ilk xususiy oliygoҳ - Toshkentda!

Xalqaro Nordik Universiteti - bu Shimoliy Yevropa davlatlari, xususan Finlyandiya oliy ta'lim modeli va ilg'or standartlariga asoslangan xususiy oliy ta'lim muassasasi. Ushbu oliygoҳ **2022-yil 8-avgust kuni** Toshkent shahrida *Kareliya amaliy fanlar universiteti (UAS), Helsingin Suomalainen Yhteiskoulu (SYK) umumta'lim maktabi, "Nokia" transmilliy korporatsiyasi, Finnish Water Forum tashkiloti va Isku kompaniyalarining bevosita qo'llab-quvvatlashlari negizida Finlyandiyaning ta'lim sohasidagi ilg'or yutuqlariga asoslangan holda faoliyat boshladи.*

**Universitetning maqsadi** - respublikada ta'lim yo'nalishlari bo'yicha yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash, ta'lim sifatini yaxshilash, zamonaviy kadrlarni tayyorlash, sohaga doir ilg'or xorijiy tajribalarni joriy etish, yoshlarning amaliy fanlar bo'yicha bilim va ko'nikmalarini shakllantirish, oliy ta'lim – ilm-fan – ishlab chiqarish bilan uzviy integratsiyasini jadallashtirishdir.

**Xalqaro Nordik Universiteti Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta'lim sifatini nazorat qilish Davlat inspeksiyasining №034528 raqamli litsenziyasini asosida o'z faoliyatini boshladи!**



Universitetining tashkil etilishi Shimoliy Yevropa mamlakatlarining nufuzli oliy ta'lim muassasalarida yo'lga qo'yilgan ilg'or tajribalar, innovatsion ta'lim modellari, o'quv reja va dasturlari asosida iqtisodiyotning real sektor ehtiyojlarini hisobga olgan holda yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlashga katta hissa qo'shadi.

**Ma'lumot uchun:** Kareliya UAS ko'p tarmoqli xalqaro va innovatsion oliy ta'lim muassasasi 1992-yilda tashkil topgan bo'lib, Finlyandiyaning Joensuu munisipalitetida joylashgan. Universitetda 7 ta ta'lim yo'nalishida 22 ta dastur bo'yicha (shundan 5 tasi magistratura) 5000 dan ortiq talabalar ta'lim oladi. Kareliya UAS mahalliy va xalqaro (Osiyo, Afrika, Yevropa va Amerika davlatlari) ta'lim muassasalari bilan faol hamkorlik qilib kelmoqda.

## Yurtimizda turib xalqaro darajadagi bilimlarni egallash mumkin!



Bunda Xalqaro Nordik Universiteti yordam beradi.

Universitet respublikada zamonaviy 8 ta ta'lim yo'nalishi bo'yicha yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash, oliy ta'lim – ilm-fan – ishlab chiqarish bilan uzviy integratsiyasini jadallashtirishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan.

Xalqaro Nordik Universitetining tashkil etilishi Finlyandiya bilan O'zbekiston o'rtaida ta'lim sohasida hamkorlikni rivojlantirish borasidagi sa'y-harakatlarning ijobil natijasidir.

2022-yilning 27-may kuni Toshkent shahrida O'zbekiston-Finlyandiya tashqi ishlar vazirlarining siyosiy maslahatlar bo'yicha 10-yig'ilishida Shimoliy Yevropa mamlakatlarining ta'lim sohasidagi ilg'or yutuqlariga asoslangan zamonaviy xususiy oliy ta'lim tashkiloti – Xalqaro Nordik Universitetini tashkil etish bo'yicha kelishuvlarga erishildi.

Xalqaro Nordik Universitetining asosiy strategik hamkorlaridan biri – Finlyandianing **Kareliya amaliy fanlar universitetidir**. Ta'lim dasturlari va metodologiyasi, nou-xau, ta'limni boshqarish tizimi, o'qituvchilar malakasini oshirish va boshqa sohalarda Kareliya UAS bilan istiqbolli hamkorlik rejalashtirilgan.

Finlyandianing transmilliy texnologik korporatsiyasi hisoblangan **Nokia** Xalqaro Nordik universitetiga o'z strategik maqsadlarini amalga oshirishda asosiy hamkorlardan biridir. Bizness-inkubator, xorijda stajirovka, master-klasslar tashkil etishda yaqindan yordam beradi.

Shuningdek, kelgusida yanada kuchliroq hamjamiyatni yaratish, yosh kadrlarni o'qitish va salohiyatini birlashtirish orqali tizimlarga innovatsiyalar kiritish, bulutli mahalliy yechimlar taqdim etish, jamiyatning taraqqiyotiga katta turtki bo'ladigan yangi ilovalar ustida ishslash imkonini beradi.



## Yurtimizda turib xalqaro darajadagi bilimlarni egallash mumkin!



**Helsingin Suomalainen Yhteiskoulu (SYK)** umumta'lim maktabi o'z o'quvchilarini milliy imtihonga yoki Xalqaro bakalavr diplomiga tayyorlaydi. Har ikkalasi ham o'quvchilarga universitetga kirish malakasi va imkonи beradi. Ayniqsa, IB (Xalqaro bakalavr) talabalarga dunyodagi deyarli har qanday universitetga kirish uchun noyob imkoniyat beradi. Kelgusida universitetda ushbu maktab bilan hamkorlikda Xalqaro Nordik fin maktabi tashkil etiladi.



Shuningdek, universitetning xalqaro hamkorlari - **Finnish Water Forum** va **ISKU kompaniyalari** talabalarining o'quv amaliyotlarini o'z bazalarida tashkil etishga ko'maklashadilar. ISKU kompaniyasi oliyohoh va uning qoshida tashkil etilishi rejalashtirilgan maktab binolari dizayni, o'quv va boshqa jihozlari hamda aksessuarlarini fin talablari asosida tashkil etish bo'yicha strategik hamkordir. Universitetga Finlandiyadagi eng yaxshi tajriba, dizayn va texnologiyalar asosida zamonaviy kampusni loyihalash va barpo etishda yordam beradi. Universitet Talabalar shaharchasi O'zbekiston va butun Markaziy Osiyo uchun chinakam fin o'quv binolari dizayni va o'quv xonalari, laboratoriylar hamda o'quv mebellari va aksessuarlari bilan tanishish uchun ochiq osmon ostidagi ko'rgazma zali bo'lib xizmat qiladi.

Universitet talabalarga qator imkoniyatlarni taqdim etadi. 1-4-kurslarda o'qish davomida ingliz, rus tillaridan tashqari fin tili mukammal o'rgatiladi. Barcha kurslar bo'yicha ta'l'im yo'nalishidan qat'iy nazar yozgi ta'tilda tanlov asosida **Finlyandiya, Shvetsiya, Norvegiya va Daniya** kabi davlatlarda ish va sayohat (work and travel) dasturlarida qatnashish imkoniyati beriladi. 2+2, 3+1 qo'shma dasturlari asosida 2-kursdan keyin o'qishni Finlyandiya universitetlarida davom ettirib, ikki tomonloma (double degree) diplom olish mumkin. Bakalavr bosqichidan so'ng hamkor xorijiy davlatlardagi yetakchi kompaniyalarda ishlash yoki o'z biznes start-up loyihalarini amalga oshirish imkoniyatini ham taqdim etiladi.



**DOUBLE DEGREE**

**2+2, 3+1  
Exchange program**

## Yurtimizda turib xalqaro darajadagi bilimlarni egallash mumkin!

Oliygohda mahalliy hamda xorijiy professor-o'qituvchilar, chet el biznes amaliyotchilari talabalarni natijalarga qadar olib boradilar. Xalqaro hamkorlar ko'magida xorijda stajirovka, ish o'rganish, master-klass, startaplarni rivojlantirish, kelajakda xorijda ishga joylashtirishga ko'maklashiladi. Bakalavriat bosqichini muvaffaqiyatli (**yuqori GPA ko'rsatkichi bilan**) tugatganlar uchun magistraturani Finlyandiyada imtiyoz asosida o'qib kelish imkoniyatlari beriladi.

Universitet, haqli ravishda, fin va o'zbek hamkorligining ilk yirik natijasi, Finlyandiya oliy ta'lif tizimining O'zbekistondagi yagona aksi, Toshkentdag'i birinchi ta'lif klasteridir.



## Xalqaro Nordik Universitetiga 2022/2023-o'quv yili uchun ilk qabul boshlandi!

Finlyandiya ta'lif modeliga asoslangan XNUda oliy ta'lifning bakalavriat bosqichiga **8 ta yo'nalish** - Iqtisodiyot, Moliya, Biznesni boshqarish, Sanoatni boshqarish, Boshlang'ich ta'lif, Maktabgacha ta'lif, Xorijiy til va adabiyoti: ingliz tili, Kompyuter injiniringi yo'nalishlari bo'yicha (kunduzgi va sirtqi ta'lif shakllariga) qabul o'tkazildi.

Universitet malakali mutaxassislar tayyorlash, oliy ta'lif - ilm-fan - ishlab chiqarish bilan uzviy integratsiyani jadallashtirishni o'z oldiga maqsad qilib qo'yan. Ta'lifning global tendensiyalari, kadrlarga bo'lgan talablar va yoshlarning kelajak umidlarini tahlil qilgan holda Iqtisodiyot, Moliya, Biznesni boshqarish, Sanoatni boshqarish, Boshlang'ich ta'lif, Maktabgacha ta'lif, Xorijiy til va adabiyoti: ingliz tili, Kompyuter injiniringi yo'nalishlarida raqobatdardosh kadrlar tayyorlaydi. Ya'ni, biznesning barcha bo'g'inlarida faoliyat yuritishni istagan, top menejer, iqtisodchi-konsultant, xalqaro moliyaviy tahlilchi, sanoat tarmoqlarini boshqaruvchi, IT bo'yicha kompleks masalalarni yechish, xorijiy tillarni o'rganish va ta'lif tizimida faoliyat yuritish istagidagi yoshlarga xalqaro sifatli oliy ta'lif olishlariga ko'maklashadi.

## Helsinki universiteti vakillari tashrif buyurdilar |25-avg.|

Finlyandiyaning eng qadimiy va yirik, keng fanlar assortimentiga ega Helsinki universitetning Huquq ustuvorligi markazi direktori **Tuija Brax**, Huquq fakulteti dekani o'rinosbosari, professor **Sakari Melander** va Adliya kansleri o'rinosbosari **M.r Mikko Puumalainen** tashrif buyurdilar.

Finlyandiya delegatsiyasi vakillari va XNU rahbariyati o'ttasida o'zaro muzokaralar o'tkazildi. Har ikki universitetning faoliyati, maqsad va rejali, kelgusidagi hamkorlik yo'nalishlari belgilab olindi. Tadqiqotlarga asoslangan Helsinki universitetning boy ta'lif tajribalarini o'rganish, ustuvor jihatlarini XNU faoliyatiga tatbiq etish, hamkorlikda tadqiqotlar o'tkazish, professor-o'qituvchilar va talabalar almashish, qo'shma ta'lif dasturlarini amalga oshirishga kelishildi.



## Finlandiya ta'lif tajribalari o'rganildi |27-avg.|



XNU va uning pedagogika va ta'lif texnologiyalarini rivojlantirish bo'yicha Finlyandiyadagi hamkor **DiDacTEC ta'lif markazi** O'zbekistonning ta'lif sohasi vakillariga Finlyandiya ta'lif tajribasi bilan tanishishda amaliy yordam bermoqda.

O'zbekiston vakillari - poytaxtimizda joylashgan "Lider" va boshqa nodavlat maktablar rahbarlari hamda o'qituvchilaridan iborat ta'lif delegatsiyasi Finlyandiyada Jyväskylä markazida trenerlar yordamida fin tilini o'rganishga kirishdilar va ushbu mamlakatning ta'lifdagisi jahon miqyosida tan olingan muvaffaqiyatlari sirlari bilan tanishdilar.

XNU va Qashqadaryo viloyat hokimligi bilan tuzilgan o'zaro innovatsion-korporativ hamkorlik (memorandum) shartnomasida belgilangan vazifalar ijrosiga muvofiq Finlyandiyalik professor **Petri Lounaskorpi** hokimga maslahatchi etin tayinlandi.

## Xalqaro seminar-trening o'tkazildi |8-sen.|

XNUda "Finlandiya ta'lrim tizimining fenomeni: o'quv muhitini barpo etishda Finlandiya yondashuvining amaliy qo'llanilishi, o'quv muhitining natijalarga va talabalalar motivatsiyasiga ta'siri" mavzusida ilk xalqaro seminar-trening o'tkazildi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta'lrim sifatini nazorat qilish Davlat inspeksiyasi, Finlandianing ISKU kompaniyasi hamkorligida o'tkazilgan konferensiyada Toshkent shahrida faoliyat olib borayotgan XTBga qarashli davlat va nodavlat maktablar direktorlari ishtirok etdilar.

Treningda Finlyandianing O'zbekistondagi favqulodda va muxtor elchisi Ilkka Raysyanen hamda XNU rektori Sherzod Mustafakulovlar so'zga chiqdilar. Finlyandiya ta'lrim tajribasida eng asosiy e'tibor o'qituvchilarni tayyorlash tizimiga qaratilishi, tizimning muvaffaqiyati aynan yuqori salohiyatlpedagoglar bilan bog'liq ekanligini e'tirof etdilar.

Seminar-treningda Finlandianing ISKU kompaniyasi MDH mamlakatlari bo'yicha direktori Natalya Salonen xonim va kompaniya vitse-prezidenti **Elize Tarvaynen** xonimning ma'ruzalari tinglandi. Amaliy fanlar universiteti laboratoriyasi, 5000 dan ortiq talabalarga ega kampus, Biznes va mehmonxonani boshqarish fakulteti, dizayn instituti, ijtimoiy va sog'liqni saqlash fakultetlarining faoliyati, o'quv muhitidagi o'ziga xos yondashuvlar xususida ma'lumotlar berildi.



## Xalqaro Nordik Universitetining rasmiy ochilish tadbiri bo'lib o'tdi | 8-sen.|

2022-yilning 8-sentyabr kuni Xalqaro Nordik Universiteti (Nordic International University)ning tantanali ochilishi bo'lib o'tdi. Finlyandiyaning ta'lif sohasidagi ilg'or yutuqlariga asoslangan holda tashkil etilgan ushbu xalqaro universitetning tantanali ochilish tadbiri munosabati bilan Finlyandiyaning O'zbekistondagi favqulodda va muxtor elchisi Ilkka Raysyanen va Finlyandiya milliy ta'lif agentligi direktori Samu Seitsalo boshchiligidagi ta'lif sohasi vakillari va bir qator hamkor kompaniyalar rahbarlaridan iborat delegatsiya tashrif buyurdi. Shuningdek, vazirliklar, idoralar, diplomatik korpus vakillari va viloyat rahbarlari, oliy ta'lif muassasalari rektorlari, ta'lif tizimi va keng jamoatchilik vakillari ishtirok etdilar. Nufuzli mehmonlar Xalqaro Nordik Universitetida ehtirom bilan kutib olindilar.



**Sherzod Mustafakulov**

Xalqaro Nordik universiteti rektori

Tadbirni universitet rektori, iqtisodiyot fanlari doktori **Sherzod Mustafakulov** kirish so'zi bilan ochib, universitetning maqsadlari, strategik hamkorlari, kelgusida talabalar uchun yaratiladigan zamonaviy imkoniyatlar bilan tanishtirdi. Respublikamizda belgilangan ta'lif yo'nalishlari bo'yicha yuqori malakali zamonaviy kadrlar tayyorlash, ta'lif sifatini yaxshilash, sohaga doir ilg'or xorijiy tajribalarni joriy etish, yoshlarning amaliy fanlar bo'yicha bilim va ko'nikmalarini shakllantirish, oliy ta'lif – ilm-fan – ishlab chiqarish bilan uzviy integratsiyasini jadallashtirish borasidagi maqsad-vazifalarga to'xtaldi.



## Xalqaro Nordik Universitetining rasmiy ochilish tadbiri bo'lib o'tdi (8-sen.)

Ochilish tadbirida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Matbuot kotibi **Sherzod Asadov** tabriklash uchun so'zga chiqdi. Universitetning tashkil etilishi xalqaro nufuzli universitetlarda yo'lga qo'yilgan ilg'or tajribalar, innovatsion ta'lif modellari asosida yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlashga katta hissa qo'shishiga ishonch bildirdi.



**Sherzod Asadov**

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Matbuot kotibi

Ochilish marosimida so'zga chiqqanlar Xalqaro Nordik Universiteti Shimoliy Yevropa davlatlari, xususan Finlyandiya modeli asosida tashkil etilgan O'rta Osiyoda yagona bo'lgan xususiy universitet ekanligini e'tirof etdilar. Universitetning tashkil etilishi Shimoliy Yevropa mamlakatlarining nufuzli oliy ta'lif muassasalarida yo'lga qo'yilgan ilg'or tajribalar, innovatsion ta'lif modellari, o'quv reja va dasturlari asosida iqtisodiyotning real sektor ehtiyojlarini hisobga olgan holda yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlashga katta hissa qo'shishiga ishonch bildirildi.



**Samu Seytsalo**

Finlyandiya Milliy ta'lif agentligi direktori

Anjumanda Finlyandiya Milliy ta'lif agentligi direktori **Samu Seytsalo** universitet faoliyatiga yuksak muvaffaqiyat tiladi. U Finlyandiya delegatsiyasi yurtimizda ta'lif tizimi mas'ullari bilan har jihatdan manfaatli masalalar yuzasidan muzokaralar o'tkazayotgani, uzviy hamkorlikda kelgusida fin ta'lif tizimining dasturlari va ilg'or metodologiyasi asosida professor-o'qituvchilarning malakasi oshirilishi, sifatli kadrlar tayyorlash orqali yanada kuchliroq hamjamiyat yaratilishini ta'kidladi.

## Xalqaro Nordik Universitetining rasmiy ochilish tadbiri bo'lib o'tdi (8-sen.)

**Ilkka Raysyanen**

Finlyandiyaning O'zbekistondagi favqulodda va muxtor elchisi

Rasmiy ochilish tadbirida Finlyandiyaning O'zbekistondagi favqulodda va muxtor elchisi **Ilkka Raysyanen** Xalqaro Nordik Universitetining tashkil etilishi Finlyandiya hamjamiyati uchun ham quvonchli vogelik ekanligini e'tirof etdi.

Finlyandiya - O'zbekiston hamkorligi, xususan ta'lif tizimidagi istiqbolli loyihalar kelgusida har ikki davlat yoshlari kelajagi uchun ham muvaffaqiyatli ekanligi, kadrlar tayyorlash va ularning salohiyatini birlashtirish orqali tizimlarda innoyatsiyalarga keng yo'l ochilishiga ishonch bildirdi.

Anjumanda Kareliya amaliy fanlar universiteti Prezidenti **Petri Rayvo** rasmiy tashriflar davomida Xalqaro Nordik Universiteti bilan tuzilgan strategik hamkorlik aloqalari uzoq yillarga mo'ljallanganligini alohida e'tirof etdi. Kelgusida "double degree" dasturi asosida universitet talabalariga Finlyandiyada sifatli ta'lif olishlari, ta'lif sohalarida professional bo'lislari uchun barcha sharoitlar yaratilishini ma'lum qildi. O'zbekiston yoshlarining ilm olishga katta ishtiyoqi borligi va iqtidorlarini alohida e'tirof etib o'tdi.

**Petri Raivo**

Kareliya amaliy fanlar universiteti Prezidenti

**Ulug'bek Toshkentboyev**

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta'lif sifatini nazorat qilish Davlat inspeksiyasi rahbari

Ochilish tadbirida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta'lif sifatini nazorat qilish Davlat inspeksiyasi rahbari **Ulug'bek Toshkentboyev** ta'lif tizimida shiddat bilan ro'y berayotgan islohotlar va o'zgarishlar bois nodavlat ta'lif xizmatlariga keng yo'l ochilganini ta'kidladi. Finlyandiya bilan hamkorlik asosida xalqaro nodavlat oliy ta'lif muassasasining tashkil etilishi kelgusida minglab ilmtalab yoshlarimizga yurtimizda va xorijda xalqaro ta'lif olishlariga imkoniyat yaratishini e'tirof etdi.

## Xalqaro Nordik Universitetining rasmiy ochilish tadbiri bo'lib o'tdi |8-sen.|

Tadbirda so'z olganlar barcha yoshlar va ustozlar, universitet jamoasini yangi ta'lif maskani faoliyati bilan qutlab, katta ishonch bildirdilar va muvaffaqiyatlar tiladilar.

Finlyandiya delegasiya bilan har tomonlama manfaatli masalalar yuzasidan muzokaralar bo'lib o'tdi.

Ma'lumot o'rnidagi, Finlyandiya delegatsiyasi O'zbekistonga 5-9-sentyabr kunlaridagi tashrifi doirasida qator hamkorlik uchrashuvlarda ishtirok etdilar. Xususan, Ta'lif sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasida davra suhbatи tashkil etilib, kelgusidagi hamkorlik rejali muhokama qilib olindi. Tashqi ishlar vazirligida ta'lif sohasi vakillari bilan seminar va "Brainstorming" o'tkazildi. Delegatsiya a'zolarining O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lif vazirligiga tashrifi davomida ham har ikki tomon uchun manfaatli takliflar ilgari surildi, rejalar tuzib olindi.

Shuningdek, Toshkentdagi Yevropa Ittifoqi delegatsiyasi vakillari, Jahon banki, Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki (YeTTB), Osiyo taraqqiyot banki (OTB) va boshqa xalqaro moliya tashkilotlari vakillari bilan uchrashdilar. Ayniqsa, Zamin xalqaro jamoat fondi rahbariyati va YUNISEF hamda YUNESKOning O'zbekistondagi vakolatxonlari vakillari bilan uchrashuvlar har tomonlama samarali kechdi.

Mehmonlar Toshkentning diqqatga sazovor joylariga sayohatda bo'lib, yurtimizdan iliq taassurotlar bilan qaytdilar.



## Mobil ta'larning muvaffaqiyatli yechimlari o'rganildi |8-sen.|

XNUda professor-o'qituvchilar tomonidan o'qitiladigan fanlarning elektron darslarini yaratish, Articulate Rise platformasining imkoniyatlaridan maksimal foydalanish bo'yicha seminar-trening o'tkazildi.

Oliy ta'lim bo'yicha xalqaro maslahatchi, masofaviy ta'limni rivojlantirish bo'yicha xalqaro darajadagi ekspert **Odilbek Kattayev** universitet professor-o'qituvchilari va ilmiy xodimlariga elektron ta'limga yo'naltirilgan Articulate Rise imkoniyatlaridan foydalanish bo'yicha trening o'tkazdi. Platformaning xususiyatlari, dasturda mavjud namunalar asosida slayderlar, galereyalar, test topshiriqlari va onlayn kurslar uchun zarur manbalarni vaqtini tejagan holda va bexato yaratish bo'yicha amaliy mashg'ulot o'tkazildi.



## Xorijiy kompaniya vakillari bilan muzokara o'tkazildi |17-sen.|



Xalqaro Nordik universitetiga Tayvanning **NUWA Robotics** kompaniyasi Bosh direktori jamoasi bilan tashrif buyurdi. Oliy ta'lim - ilm-fan va ishlab chiqarish integratsiyasini amalga oshirish maqsadida dunyo robotexnika sanoatida yetakchilardan biri bo'lgan ushbu kompaniya bilan hamkorlik yo'lga qo'yildi.

O'zaro muzokaralarda universitetning Kompyuter injiniringi yo'nalishi talabalari bilan dasturlar yaratish va takomillashtirish ustida ishslash kabi istiqbolli rejalar muhokama qilindi.



## XNU sanoat sohasi rivoji va xorijiy ish tajribalarini o'rganishda ko'priq vazifasini o'taydi [19-sen.]

XNUda "Olmaliq kon-metallurgiya kombinasi" AJ vakillari bilan uchrashuv bo'lib o'tdi. Muzokarada mamlakatimiz sanoatchilarining Finlyandiyaning yetakchi kon-metallurgiya kombinatlari va oliv ta'lif muassasalarida mehnat muhofazasi hamda sanoat yo'nalishidagi ish tajribalari va ilmiy yechimlarini o'rganishlarini tashkillashtirishga kelishildi.



## Finlyandiya Meteorologiya instituti tadqiqotchilari bilan hamkorlik o'rnatildi [19-sen.]

Finlyandiyalik tadqiqotchi, Meteorologiya instituti vakili **Anne Hirsikko xonim** XNUga tashrif buyurib, faoliyati bilan yaqindan tanishdi. Mazkur institut bilan hamkorlik o'rnatilib, kelgusidagi istiqbolli yo'nalishlar belgilab olindi.



## XNUga Navoiy viloyati hokiminining Finlyandiyalik maslahatchisi tashrif buyurdi [23-sen.]

XNU ko'magida Finlyandiya Respublikasining ta'lif bo'yicha nufuzli eksperti **Xanne Koli xonim** Toshkentga taklif etilib, ushbu mutaxassis Navoiy viloyati hokimiga ta'lif bo'yicha maslahatchi sifatida o'z faoliyatini boshladi. Xanne Koli xonim Navoiy viloyati xalq ta'limi pedagoglari bilan ta'lifni yanada rivojlantirish bo'yicha muhim ishlarni amalga oshirishga kirishdi.



## XNU Kengashining 1-yig'ilishi o'tkazildi |26-sen.|

Kengash yig'ilishida universitet faoliyatiga oid o'nga yaqin dolzARB masalalar muhokama qilindi. Xususan, 2022-2023 o'quv yili uchun bo'lib o'tgan qabul jarayonlari, ta'lIM yo'naliShlari o'quv rejalari va fanlardan sillabuslarni yaratishning zamonaviy usullari ko'rib chiqildi.

Shuningdek, universitet ARM faoliyatini rivojlantirish bo'yicha huquqiy-me'yoriy hujjatlar holati o'rganildi, elektron bazani rivojlantirish choralarini belgilandi. Departamentlar, kafedra va boshqa bo'linmalar faoliyatini tartibga soluvchi qator hujatlarni tasdiqlash to'g'risidagi masalalar ko'rib chiqildi. Universitetning o'ziga xos qadriyatlarini shakllantirish maqsadida Korporativ etika kodeksi tasdiqlandi.



## BMT Taraqqiyot dasturining O'zbekistondagi doimiy vakili – XNUda |27-sen.|

Iqtisodiy siyosat va rivojlanish bo'yicha yoqori nufuzga ega bo'lgan **Matilda Dimovska xonim** universitetimizga tashrif buyurdi.

Uchrashuvda O'zbekistondagi qator hamkor tashkilotlar bilan amalga oshirilgan xalqaro va mahalliy loyihalarning samarasiga to'xtaldi va kelgusida Xalqaro Nordik universiteti bilan istiqbolli hamkorlik yo'naliShlari muhokama qilindi.

Nufuzli vakil BMT Taraqqiyot dasturining 4-ustuvor maqsadi Sifatli ta'lIM, ya'ni har bir insonni qamrab oluvshi odil hamda yuqori sifatli ta'lIM tizimini ta'minlash, ta'lIM olishini rag'batlantirish ekanligini ma'lum qildi. Bu maqsad yo'lida universitet bilan hamkorlikda o'zining barcha imkoniyatlari va salohiyatini safarbar etishga tayyorligini bildirdi.



## BMT Taraqqiyot dasturining doimiy vakili – XNUda |29-sen.|



XNUning Shimoliy Yevropa mamlakatlari, xususan Norvegiya bilan hamkorligi har jihatdan mustahkamlanmoqda. Norvegiyaning O'zbekistondagi favqulodda va muxtor elchisi (PhD) **Jon Mikal Kvistad** XNUga tashrif buyurdi.

Tashrif chog'ida elchi janoblari Norvegiyaning Yevropa bo'yicha eng yetakchi oliy ta'lif tizimlaridan biriga egaligi, ta'lif sifatining yuqorilini alohida e'tirof etdi. Uchrashuvda ushbu mamlakat tadqiqotlarga ko'ra, dunyodagi yashash uchun eng yaxshi davlatlar orasida ham yuqori o'rinda ekanligi, Norvegiyaning qator OTMlari jahon universitetlari reytingidan o'rin olgani va xalqaro talabalar uchun ideal tanlovlardan biri bo'lishi xususida so'z bordi.

Muzokara davomida qo'shma dasturlar asosida universitet talabalarining Skandinaviya yarim orolida joylashgan bu jozibador mamlakatda sifatli ta'lif olishlariga keng imkoniyat yaratish bo'yicha hamkorlik istiqbollari belgilandi.

## Helsingin Suomalainen Yhteiskoulu (**SYK**) maktabi vakillari tashrif buyurdi |15-okt.|

XNUga Finlyandianing **SYK** maktabi direktori, o'qituvchi va o'quvchilarini tashrif buyurdilar.

Tajribali o'qituvchilarimiz tomonidan universitet faoliyatiga oid taqdimot o'tkazilib, hamkor delegatsiya a'zolariga ta'lif tizimimiz haqida keng ma'lumotlar berildi.

Tashrif doirasida 1886-yilda tashkil etilgan, Finlyandianing K-12 modeliga asoslangan SYK maktabi direktori bilan universitet qoshida faoliyati yo'lga qo'yiladigan fin maktabi xususida muzokara o'tkaziladi. Shuningdek, SYK maktabi delegatsiyasi poytaxtimizdagi nodavlat maktablarga hamda Navoiy viloyatiga tashrifi amalga oshirilib, ta'lif tizimi vakillari, talabalar va o'quvchi-yoshlar o'rtasida uchrashuvlar tashkil etildi.



## XNU Foundation maktabi darslariga start berildi |11-okt|

Foundation maktabi o'z faoliyatini boshladi va turli dunyoqarashli yoshlarni oliv maqsad - ilm olish yo'lida o'quv xonalarida jamladi.

Barcha tinglovchilar o'zaro do'stona muhitda qat'iy ahd va shahd bilan bilim olishga kirishdilar.



## Fin siyosatchisi, mashhur yozuvchi bilan onlayn muloqot o'tkazildi |11-okt|

Finlyandianing Xelsinki shahrida istiqomat qiluvchi taniqli siyosatchi, tinchlik uchun kurash harakatlarining faol ishtirokchisi, shofokor, yozuvchi **Väinö Ilkka Ilari Taipalening** Xalqaro Nordik universiteti professor-o'qituvchilari bilan onlayn muloqoti o'tkazildi.

U sotsial-demokrat, Finlyandiya parlamentining a'zosi bo'lgan. U Tampere universitetida ijtimoiy tibbiyot fanlari dotsenti hamdir.

Ilkka Taipale "**Ydin**" siyosiy jurnali asoschisi, "**Россия - Mon Amour**" va "**Finlyandianing 100 ta ijtimoiy innovatsiyasi**" kitoblari muallifidir.

Onlayn muloqotda bu fin ziyoli insoni Finlyandianing shu darajaga qanday erishgani, siyosiy, ijtimoiy va maishiy innovatsiyalar xususida keng ma'lumotlar berdi. Onlayn muloqot o'zaro savol-javoblar bilan qizg'in o'tdi.



## Xalqaro press-klubning maxsus soni Xalqaro Nordik universitetida tasvirga olindi [11-okt.]

O'zbekiston-Finlyandiya ta'lif modeli: o'xshashlik va tavofutlar muhokama qilindi.



## O'quvchi-yoshlar Foundation maktabi bilan tanishdilar [12-okt.]



XNUning Foundation maktabida o'quvchilar uchun "**Ochiq eshiklar kuni**" tashkil etildi. Taqdimotlar orqali ularga ta'lif yo'nalishlari, qo'shma dasturlar, "Work&Travel", double degree imkoniyatlari, Finlyandiyadagi xalqaro hamkorlar hamda xorijiy professor-o'qituvchilar haqida keng ma'lumotlar berildi. XNUga o'qishga kirishni ta'minovchi barcha imkoniyatlar o'quvchilarda katta qiziqish uyg'otdi.



## DTM Jamoatchilik kengashining yig'ilishi bo'lib o'tdi [13-okt.]

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi DTM qoshidagi **Jamoatchilik kengashining yig'ilishi** bo'lib o'tdi.

Kengash a'zolari, xususan XNU rektori Sherzod Mustafakulov ishtirokida o'tgan yig'ilishda DTM tomonidan 9 oy davomida amalga oshirilgan ishlar sarhisob qilindi.



## **Yoshlar manfaatlari yo'llidagi hamkorlik aloqalari kengaymoqda |19-okt.|**

XNUga Toshkent viloyati hokimining yoshlar siyosati, ijtimoiy rivojlantirish va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha o'rinbosari **Otabek Sultanbekov**, Toshkent viloyati Xalq ta'limi boshqarmasi boshlig'i **Azamat Kamalovlar** tashrif buyurdilar.

Toshkent viloyati mutasaddilari bilan ta'lim tizimini rivojlantirish, viloyat yoshlarining oliy ta'lim bilan qamrov darajasini oshirish, ular o'rtasida ilmnинг mohiyatini keng targ'ib qilish va pirovard natijada sifatli ta'lim olishlarini ta'minlash borasida hamkorlik qilish bo'yicha kelishuv amalga oshirildi.

Talabalarning universitet bilan tanishish kunlari boshlandi



## **XNUda ilk "ORIENTATION WEEK" o'quv-tanishtiruv seminar-treningi start oldi |17-okt.|**



Ochilish tadbirida Xalqaro Nordik universiteti rektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor **Sherzod Mustafakulov** barcha talabalarni quvonchli kun - talabalik maqomiga erishganlari bilan samimiyl tabrikladi.

Tadbirda yoshlar zimmasida mamlakatning ertangi kuni bilan bog'liq ulkan mas'uliyat borligi eslatilib, talabalarga universitetda yetuk mutaxassis bo'lishlari uchun yaratilgan barcha imkoniyatlardan qunt va g'ayrat bilan foydalanish tavsiya etildi.



Shundan so'ng talabalar e'tibori auditorilarda tashkil etilgan 1 haftalik o'quv-tanishtiruv treningiga yo'naltirildi va darslar boshlandi.

## Tanishtiruv haftaligi qizg'in o'tdi |17-22 okt|



Tanishtiruv haftaligidagi treninglarda talabalar bilan odob-axloq tamoyillari haqida suhbatlashildi. "**Talabalarga yo'naltirilgan ta'lim va mustaqil ta'lim olish vositalari**" mavzusida mashg'ulotlar o'tkazildi. Talabalarga akademik jarayonlarda zarur bo'ladigan barcha bilim va tushunchalar o'rgatildi.

## Andijon viloyatiga safar uyushtirildi |20-okt|

Xalqaro Nordik universitetida faoliyat olib borayotgan Fin tili o'qituvchisi **Tatyana Islamayeva** Andijon viloyati Oltinko'l tumaniga tashrif buyurdi.

O'qituvchimiz Oltinko'l tumani hokimi tomonidan ehtirom bilan kutib olindi. Tuman hokimligi mutasaddilarini va Xalq ta'limi bo'limi mudiri bilan muzokara o'tkazildi. Finlyandiya ta'lim modelini hududdagi ta'lim muassasalariga tatbiq etishga kelishildi.

Fin o'qituvchisi tumandagi 1-umumta'lim maktabida ham bo'lib, o'qituvchi va o'quvchilar bilan suhbatlashdi.



## Germaniyaning IAMO ilmiy-tadqiqot instituti vakillari tashrif buyurdi |20-okt|



XNUga IAMO Qishloq xo'jaligi bozorlari kafedrasi dotsentlari doktor **Lena Kun** va doktor **Ihtiyor Bobojonovlar** tashrif buyurdilar. Suhbat chog'ida O'zbekistonda KlimALEZ dasturini amalga oshirish bo'yicha hamkorlik kelishuviga erishildi.



## Toshkent viloyati hokimligi bilan hamkorlik yo'nalishlari belgilandi |22-okt|



Toshkent viloyati hokimi **Zoyir Mirzayev**, Xalqaro Nordik universiteti rektori **Sherzod Mustafakulov** va Finlyandiyaning O'zbekistondagi faxriy konsuli **Alisher Jo'rayevlar** o'rtasida muzokara bo'lib o'tdi.

Muzokarada Xalqaro Nordik universiteti tomonidan namuna tariqasida Toshkent viloyatidagi maktablarning biriga fin tajribasini olib kirish, o'qituvchilarning malakasini oshirish, innovatsion o'qish metodikalarini tatbiq etish bo'yicha kelishuvlarga erishildi.

## XNUda Amerika matematika olimpiadasi o'tkazildi |23-okt|

Toshkentdagi "**Lider**" xususiy maktabi tomonidan universitetimiz bazasida AMO-2022 xalqaro matematika olimpiadasi o'tkazildi.

**SIMCC va AQSHning Janubiy Illinoys universiteti** (SIU) bilan hamkorlikda tashkil etilgan olimpiadada respublikamizdagi maktab va litseylarida ta'lrim olayotgan 800 nafar o'quvchining matematik bilimlari sinovdan o'tkazildi.



## Fin o'qituvchisidan master-klass |25-okt|

Finlandiyalik professor-o'qituvchi Tatyana Islamayeva tomonidan trening o'tkazilib, talabalarning ushbu baxtlilar mamlakati haqidagi dunyoqarashlari boyitildi.

Treningda talabalar Finlandiya aholisi, tabiatи va yuqori texnologiyalari bilan tanishdilar. Bu yurtda talabalik, maqsadlar, rejalshtirish, kasb va malaka tartiblari bo'yicha ma'lumotlarga ega bo'ldilar. Ayniqsa, fin urf-odatlari va an'analari talabalarda qiziqish uyg'otdi.



## Talabalar fin ta'lrim tizimi bilan tanishdilar |26-okt.|



Finlandiyalik professor-o'qituvchi, Qashqadaryo viloyati hokimining ta'lrim tizimidagi maslahatchisi **Petri Lounaskorpi** talabalarimizga fin ta'lrim tizimi va uning rivojlanish bosqichlari xususuda trening o'tkazdi.

Ta'limga AKT va yangi pedagogikani joriy etish borasida 35 yillik tajribaga ega katta pedagogik maslahatchi, tadqiqotchi Mr Lounaskorpi Finlyandiya ta'lrim tizimi borasida talabalarning dunyoqarashini oshirdi.



## UNICEF bilan ta'lrim loyihalari amalga oshiriladi |27-okt.|

XNUga BMT Bolalar jamg'armasi UNICEFning Ta'lrim bo'limi boshlig'i Alberto Biankoli tashrif buyurdi.

Ta'limga oid natijalarga asoslangan dasturlar va loyihalarni boshqarishda katta tajribaga ega ekspert bilan ta'lrim siyosati, xalqaro va milliy islohotlarni muvofiqlashtirish, istiqbolli loyihalarni hayotga tatbiq etishda kelishuvga erishildi.

Uchrashuvda Finlyandianing O'zbekistondagi faxriy konsuli Alisher Jo'rayev tomonidan madaniyatlarni yanada targ'ib qilish uchun maktab o'quvchilari, oliy ta'lrim universitetlari talabalar uchun Yozgi maktablarni tashkil etish, ta'limming barcha imkoniyatlarini ishga solish bilan bog'liq masalalar ham muhokama qilindi.



## Birinchi "O'zbekiston-Finlandiya xalqaro biznes-forumi" o'tkazildi |1-noy.|



Joriy yilning 1-2-noyabr kunlari Xalqaro Nordik universiteti va Saipro Group tomonidan O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi ko'magida O'zbekistonda ilk bor birinchi "**O'zbekiston-Finlyandiya xalqaro biznes-forumi**" tashkil etildi.

Biznes-forumda ikki davlat vazirlik va idoralari, dunyoning yetakchi fin kompaniyalari, xususan, Nokia, Reka Cables, FinnPartnership, Honka, Kone, Suokone kabi 30 dan ortiq kompaniya rahbarlari va mutaxassislari, shuningdek Finlyandiyaning XAMK amaliy fanlar universiteti hamda OA Vlar vakillari ishtirok etdilar.



1-noyabr kuni Xalqaro Nordik universitetida ushbu forumning ochilishi bo'lib o'tdi. Forumdan kutilayotgan maqsad yetakchi fin kompaniyalari bilan mahalliy biznes vakillarining B2B, B2G uchrashuvlarini tashkil etish, o'zaro hamkorlik shartnomalarini imzolash va kelajakda istiqbolli loyihalar bo'yicha hamkorlik qilishdan iborat ekanligi e'tirof etildi.

Forumda biznes va ishbilarmon doiralar tomonidan savdo-iqtisodiy, sarmoyaviy hamkorlikning bugungi holati va istiqboli muhokama qilindi. O'zbekiston - Finlyandiya kompaniyalarining iqtisodiy munosabatlarni kengaytirish, yuqori texnologiyalarga asoslangan qo'shma ishlab chiqarish va savdo ob'yeqtalarini yaratish, ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirish, iqtisodiy sohalar uchun yuqori malakali kadrlar tayyorlash va ularning amaliyotlarini tashkil etish kabi qator yo'nalishlarda kooperatsiya aloqalarini o'rnatish imkoniyatlari mavjudligini ma'lum qilindi.

Biznes-forumda delegatlar tomonidan ikki mamlakatning o'zaro hamkorligini yanada rivojlantirishga qaratilgan taqdimotlar namoyish etildi. B2B, B2G formatdagi uchrashuvlarda har tomonlama manfaatli hamkorlik borasida muzokaralar olib borildi.



## Birinchi "O'zbekiston-Finlandiya xalqaro biznes-forumi" o'tkazildi (2-noy.)



Forum 2-noyabr kuni ham qizg'in davom etdi. Finlyandiyaning O'zbekistondagi faxriy konsuli **D.r Alisher Jo'rarev** forumning ahamiyatiga alohida to'xtalib o'tdi.

«Suv biznesi ustaxonasi: Finlyandiyadan aqli va barqaror suv yechimlari» mavzusida taqdimot tinglandi. Xalqaro Nordik universitetining Finlyandiyadagi hamkorlaridan biri «Finnish Water Forum» kompaniyasi mas'uli janob **Arvo Nerman** suv forumi, uning maqsadlari va O'zbekistonda ushbu tizimga olib tushish mumkin bo'lgan yangi texnologiyalari xususida ma'ruza qildi.

«ECONET Oy» boshqaruvi raisi janob **Mika Kärkkäinen** kompaniya tajribasiga to'xtalib, forum ishtirokchilarining e'tiborini xalqaro yirik suv loyihibalariga qaratdi.

Shuningdek, XAMK universitetining loyihibalar bo'yicha menejeri janob **Niko Arola** va boshqa tajribali fin mutaxassislari moviy iqtisodiyot – suv sektori, suv xo'jaligida innovatsiyalarni kuchaytirish, ishlab chiqish, tadqiqot va biznes, suv ta'minotini rivojlantirish loyihibarlar borasida atroflicha ma'lumotlar berdilar. Tizimdagi muammolar muhokama etilib, yechimlar va takliflar bildirildi. Ishbilarmon doiralar bilan o'zaro hamkorlik shartnomalari imzolandi va kelajakda istiqbolli loyihibalar bo'yicha hamkorlik qilishga kelishildi.

Biznes-forum doirasida sanoat parki va poytaxtning diqqatga sazovor joylariga tashrif uyushtirildi. Nufuzli mehmonlar uchun tarixiy Samarkand shahriga sayohat tashkil etildi.



**Xalqaro Nordik universiteti xalqaro hamkorlik uchun platforma vazifasini o'tadi.**

## Poytaxtimizdagi III Xalqaro kitob ko'rgazma-yarmarkasida qatnashildi |3-noy.|

Universitet rahbariyati yarmarkaga tashrif buyurib, o'rta asrning qomusiy olimi Abu Rayhon Beruniyning 7 tomlik asarlari, g'azal mulkining sulton A.Navoiyning 5 tomlik Xamsa asarining nasriy tafsirini universitet kutubxonasiga sovg'a qilishdi.

Barcha talabalar va ustozlar ushbu nodir asarlardan bahramand bo'lmoqdalar!



## O'zbekiston-Finlandiya hamkorligi: muhim tarmoq rivoji - e'tiborda |3-noy.|

Universitetimizda Finlandyaning "Metso Outotec" kompaniyasi Prezidenti, tog'-kon sanoati bo'yicha katta tajribaga ega **Markku Terasvasara** bilan muzokara o'tkazildi.



Uchrashuvda iqtisodiyotning eng muhim tarmoqlaridan biri - tog'-kon sanoatini hamkorlikda rivojlantirish, investitsiya kiritish va yangi texnologiyalarni joriy etish borasida fikr almashildi. Tarmoq uchun zamonaviy xavfsizlik texnologiyalari yetkazib berish va turli yechimlar xususida hamkorlik yo'naliishlari belgilandi.

## Talabalarimiz noyob xazinalar maskanida |4-noy.|

Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyevning xalqimizni eng kitobxon millatga aylantirish borasidagi ezgu intilishlari bois Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasida "**INFOLIB UZBEKISTAN - 2022**" XI Milliy axborot-kutubxona haftaligi yuksak saviyada o'tkazildi.

Universitetimiz talabalari ushbu ma'rifiy haftalik doirasidagi anjumanda ishtirok etdilar. Kutubxona xodimlari hamrohligida bilimlarni boyitish uchun barcha sharoitlarga ega ziyo maskani bilan tanishdilar va Milliy kutubxona a'zolariga aylandilar.



## XNUda "Onlayn maktab" uchun tanlov o'tkazildi |s-noy.|

Respublikamizning umumta'lim maktablariga masofaviy ta'lim shaklini bosqichma-bosqich joriy etish maqsadida "**Leader onlayn**" dasturining tajriba-sinov jarayonlari o'tkazildi.



Xalq ta'limi vazirligi, Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi va O'zbekiston nodavlat ta'lim tashkilotlari uyushmasi hamkorligida 2022-2023 o'quv yilining ikkinchi choragidan boshlab masofaviy ta'limni joriy etish maqsadida Toshkent shahar maktablarida ota-onalar va o'quvchilar o'tasida anketa-so'rvonoma o'tkazildi, talabgor o'quvchilar ro'yxati shakllantirildi.

XNUda masofaviy ta'limga jalb etilgan o'quvchilarning dastlabki bilim darajasini aniqlash maqsadida boshlang'ich sinov (kirish testi) o'tkazildi.

Tanlov asosida **60 nafar** (30 nafar o'zbek, 30 nafar rus tilida olib boriladigan 2 ta sinfga) 7-sinf o'quvchilari saralab olindi.

## Talabalarimiz noyob xazinalar maskanida

2022-yilning 20-21 oktyabr kunlari bo'lib o'tgan "**Yilning eng yaxshi tarbiyachisi-2022**" respublika kasbiy ko'rlik-tanlovida qator nominatsiyalarda g'oliblar aniqlandi. Eng yaxshi metodist, kreativ tarbiyachilar nomi ma'lum bo'ldi.

Quvonchlisi, yilning eng yaxshi tarbiyachilari uchun qo'shaloq omad yor bo'ldi. Oliy ma'lumot olishdek orzulari ham ushaldi.

XNU va O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi bilan o'zaro kelishuvga muvofiq 11 nafar Yil tarbiyachisi Xalqaro Nordik universitetiga grant asosida talabalikka tavsiya etildilar.

#xushxabar

O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi va Xalqaro Nordik universiteti o'tasida imzolangan hamkorlik shartnomasiga muvofiq

Ro'ziyeva Gulnoz	Jabborova Shaxnoza	Bobomurodova Sabina	Abdullayeva Hiliola	Yulchirayeva Nafisa	Xolbotayeva Nargiza
Ashurova Sevara	Nurmanova Sevara	Orazbayeva Asel	Musidinova Shoira	Ro'ziyeva Merjan	

**100% grant**

"Yilning eng yaxshi tarbiyachisi-2022" kasbiy ko'rlik-tanlovi Respublika bosqichi g'oliblari Xalqaro Nordik universitetiga 100%lik grant asosida talabalikka tavsiya etildilar

@nordic\_edu

**UNI** UNIVERSITAS NORDIC INTERNATIONAL

## Erasmus+ axborot ko'mak seminari bo'lib o'tdi |10-noy.|

XNU va Erasmus+ milliy ofisi (NEO) hamkorligida seminar o'tkazildi.

NEO loyihasi menejeri **Gulshoda Karlibayeva** oliy ta'lim muassasalari uchun imkoniyatlar, xalqaro kredit harakatchanligi va boshqa asosiy ustuvorliklar xususida batafsil mallumotlar berdi.



## Professor-o'qituvchimiz "Kelajak liderlari"ga mahorat darsi o'tkazdi |10-noy.|

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasida "**Kelajak liderlari**" maxsus malaka oshirish dasturi doirasida davlat boshqaruviga daxldor yo'nalishlarda turli lavozimlarda faoliyat olib borayotgan eng sara mutaxassislarga trening o'tkazildi.

Ilmiy Innovatsion tadqiqotlar departamenti boshlig'i **Qobiljon Isayev** "**Kelajak liderlari**"ning malakasini oshirishga hissa qo'shdı. Trening "**Yangi O'zbekistonning zamonaviy liderlari**" mavzusiga bag'ishlanib, tinglovchilarga global o'zgarishlar sharoitida yetakchilarga qo'yilayotgan talablar yetkazildi, liderlik sari aniq maqsadli qadamlar belgilab berildi.



## **Stokholm universiteti vakili tashrif buyurdi |12-noy.|**

Annica Kallebo (PhD) universitetimiz mehmoni bo'ldi va professor-o'qituvchilarimiz bilan o'z tajribasini bo'lisdidi.



U o'z ma'rurasida global miqyosda istiqbol, erta bolalik ta'lrimini tashkil qilish borasi to'xtaldi. Empirik, metodologik, konseptual tarzda ta'lim maydonlarida tadqiqot va amaliyotlarni tashkil qilish kabi ustuvor jihatlarga ahamiyat qaratdi.

## **Shvetsiya bilan ta'lim, ilm-fan borasida hamkorlik o'rnatildi |15-noy.|**

Universitetga Shvetsiyaning O'zbekistondagi elchisi **Tomas Danestad** tashrif buyurdi. Elchi janoblari oliygoh faoliyati, strategik rejalar bilan tanishdi.



## **Hamkorlikka oid muhim takliflar o'rganilmoqda |16-noy.|**

XNUga Finlandiyaning qator mas'ullari tashrifi bo'lib o'tmoqda. Ular tomonidan universitet istiqboli bilan bog'liq qator takliflar ilgari surilyapti.

Finlandiya tashqi ishlar vazirligining Markaziy Osiyo bo'yicha jamoa rahbari Olli Nurmi Finlandiyaning O'zbekistondagi favqulodda va muxtor elchisi Ilkka Raysyanen hamrohligida XNUga tashrif buyurdi. Nufuzli mehmon bilan fin oliyohlari va XNU hamkorligi borasida fikr almashildi.



## Bayramona atmosfera: unutilmas lahzalarga boy kun bo'ldi |17-noy.|

Universitetimiz talabalari ilk bayramlari - "**Xalqaro Talabalar kuni**"ni fayzli davrada do'stona nishonladilar.

Rektor tabrigi, talabalar tomonidan namoyish etilgan qiziqarli badiiy dastur, xonanda va raqqosalarning chiqishlari, bayramga bag'ishlab o'tkazilgan musobaqa g'oliblarining taqdirlanishi bilan ham ushbu kun esda qolarli o'tdi.



## IQTIDORLI YOSHLARGA UNIVERSITET GRANTLARI AJRATILDI

Xalqaro Nordik universiteti bilimli, iqtidorli yoshlarni qo'llab-quvvatlash, ularning oliy ta'lim olishlari va qobiliyatlarini yuzaga chiqarishni rag'batlantirishni maqsad qilgan.

Siz suratlarda ko'rib turgan eng yuqori ball bilan talabalikka qabul qilinganlarga ana shunday maqsadlarda universitet grantlari taqdim etildi!



## Mehnat migratsiyasi bo'yicha xalqaro Forum - 2022 |22-noy.|

O'zbekistonda ilk bor yangi keng formatda mehnat migratsiyasi bo'yicha xalqaro Forum o'tkazildi. 6 ta davlat rasmiy doiralari ishtirokida xavfsiz, tartibli va qonuniy mehnat migratsiyasi geografiyasini kengaytirishga e'tibor qaratildi.

"Xavfsiz, tartibli va qonuniy mehnat migratsiyasining afzalliklari" xalqaro forumi **O'zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi, Tashqi mehnat migratsiyasi agentligi, Saipro Group agentligi va XNU hamkorligida tashkil etildi.**

Forum Xalqaro mehnat tashkiloti, Xalqaro migratsiya tashkiloti tomonidan qo'llab-quvvatlandi. Forum tashqi mehnat migratsiyasi, uning tashqi diversifikatsiyasi, mehnat muhajirlarining huquq va manfaatlarini himoya qilish, global migratsiya jarayonlarining tendensiyalari va harakatlantiruvchi kuchlari, migratsiya siyosatining mohiyati va samaradorligi, ijtimoiy sohaga ta'siri kabi asosiy masalalarni muhokama qilish imkonini berdi.



## Xalqaro forum doirasida imzolash marosimi bo'lib o'tdi |22-noy.|

Xalqaro Nordik universiteti va "Tashqi mehnat migratsiyasi agentligi" davlat unitar korxonasi o'rtaida o'zaro hamkorlik memorandumi imzolandi.

Kelgusida ta'lim, ilm-fan va ishlab chiqarishning o'zaro integratsiyasi, mehnat munosabatlari va migratsiya jarayonlari bo'yicha tadqiqotlar olib borish, talabalarning o'quv, kasbiy amaliyat va stajirovkalarini tashkil etishda hamkorlikni amalga oshirishga kelishildi.



## Finlyandiyalik ekspertlar ishtirokida seminar-trening o'tkazildi |26-noy.|



Xalqaro Nordik universiteti, Lider xususiy maktabi va Ziyo muallim o'qituvchilarni rivojlantirish markazi hamkorligida o'qituvchi-pedagoglar uchun seminar-trening o'tkazildi.

XNUda ta'lif tizimida 25 yillik tajribaga ega Finlyandiyalik ekspert-spikerlar **Hanne Koli** va **Petri Louranskorpi** ikki kun davomida pedagoglarga "O'quvchilarga yo'naltirilgan ta'lif: o'qituvchilarning kasbiy mahorati va uni rivojlantirishning zamonaviy usullari" mavzusida mahorat darslari o'tkazdilar. Ta'lif maslahatchisi Hanni Koli trening ishtirokchilarini Finlandiya ta'lif tizimining ustuvor jihatlari bilan keng tanishtirdi. Ta'limda jahon tendensiyasi va fin ta'lif tizimini qiyosiy, tahliiy ochib berildi.

Ya'ni, raqobatga emas ijodkorlikka, sinovlarga asoslangan javobgarlik emas aksincha ishonchga asoslangan mas'uliyatga, maktablarni erkin tanlashga emas tenglikka qurilgan fin ta'lif tizimi tajribalaridan saboq berildi.

## Xalqaro institut direktori – XNUda |30-noy.|

Universitetimizga Interlink xalqaro instituti direktori **Ahad Shahbaz** tashrif buyurdi. Nufuzli mehmon va Xorijiy tillar kafedrasi professor-o'qituvchilari ishtirokida jonli muloqot bo'lib o'tdi.

Uchrashuvda XNU faoliyatiga oid taqdimot o'tkazildi. Maxsus mehmon oliygohdagi ta'lif tajribalari bilan yaqindan tanishtirildi. Interlink xalqaro instituti va Xalqaro Nordik Universiteti o'rtasida Anglashuv memorandumi imzolandi.



**XNU faoliyati - respublikamiz markaziy nashrlarida**

Xalqaro Nordik universiteti olimlarining nuqtai nazarlari respublikamiz OAVlari, Xalqaro press-klubda yoritilmoqda, markaziy nashrlar, ayniqsa "**Xalq so‘zi**", "**Народное слово**" gazetalarida muntazam nashr etib borilmoqda. XNUning ilm-fan, ta‘lim, biznes va boshqa jabhalaridagi faol ishtiroki ham OAVlari tomonidan keng targ‘ib qilib borilyapti.

O'zbekiston va Finlyandiya oliv ta'lif tizimlari bo'yicha eng tajribali professor-olimlarning tahliliy maqolalari "Xalq so'zi" gazetasida nashr etilmoqda. Xususan, Finlyandiyaning Kareliya amaliy fanlar universiteti Prezidenti **Petri Rayvo** va Xalqaro Nordik universiteti rektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor **Sherzod Mustafakulovning** turkum maqolalarida ikki davlat hamkorligining ta'llim tizimida aksini topayotgan samarasi atroflicha yoritildi. Finlandiyaning oliygohi XNUga fin ekspert-pedagoglari taklif etilib, o'qituvchilarning malakasini oshirishga qaratilgan seminar-treninglar tashkil etilayotgani "Xalq so'zi" va "Народное слово" gazetalarida "***Finlandiya tajribasi: markaziy o'quv rejaga asoslangan ta'limgan markazida o'quvchi turuvchi ta'lif tizimi sari***" kabi sarlavhalı maqolalarda batafsil yoritildi.



**INTILGANGA TOLE YOR!**



@nordic\_edu



[www.nordicuniversity.org](http://www.nordicuniversity.org)